



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«9» yanvar 2026 y.
№ 17

Samarqand shahridagi tashqi reklama konstruksiyalarida reklama joylashtirish

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent - 2025 yil

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Samarqand shahridagi tashqi reklama konstruksiyalarida reklama joylashtirish. Reklama maketini berilgan dizayn asosida ishlab chiqish va montaj/demontaj ishlarini amalga oshirish.
3.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar, Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011
4.	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684- sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarori hamda bank Boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Biznesni rivojlantirish banki ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi".
5.	Texnik talablar	Samarqand shahrida joylashgan 2 ta tashqi reklama konstruksiyalariga 12 oy davomida bank mahsulotlari reklamalarini joylashtirish, reklama eskizini chop etish va montaj/demontaj qilish. Reklama konstruksiyalari quyidagi manzillarda joylashgan bo'lishi lozim: 1. Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 57. Mo'ljal: Aziz Bozor; Reklama turi: Brendmaur; O'lchami: 800x700 sm. <i>Yil davomida 1 marta reklama eskizi almashtiriladi.</i> 2. Samarqand shahri, Beruniy ko'chasi, 32. Mo'ljal: Temiryo'l vokzali ro'parasidagi turar joy; Reklama turi: tom usti konstruksiyasi; O'lchami 350x600 sm. Reklama konstruksiyalari joylashtirilgandan so'ng yirtilmasligi, mustahkamligi, ranglarning saqlanishi, yoritish va konstruksiya xavfsizligi uchun kafolat muddati - 12 oy. Konstruksiyalardagi elektr ta'minoti va shu bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish ijrochi tomonidan amalga oshiriladi. Agar reklama konstruksiyasi shartnoma muddati davomida demontaj qilinadigan bo'lsa, Ijrochi mazkur xizmat bajarilmagan muddat uchun trafik va format jihatidan teng yoki yuqori bo'lgan, texnik talablarga mos alternativ reklama joyiga o'zgartirib taqdim etishi shart.
6.	Shartnoma amal qilish muddati	Shartnoma unda ko'rsatilgan xizmatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

7.	To'lov shartlari	Tomonlar shartnoma imzolagan kundan boshlab 5 bank kuni ichida shartnomaning miqdorining 30% miqdorida oldindan to'lov amalga oshiriladi. Shartnomaning qolgan 70% miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab amalga oshirilgan ishlar hajmidan kelib chiqib 10 bank kuni ichida qisman to'lab boriladi.
8.	Ishtirokchilaming tashkilotchi bilan bog'lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 570) Murodjon Osmanov

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=wP29hB49&id=d1a21164-e136-42b0-942a-3375f12cec74>